

**Nutq etika va estetikasi: notiq mas'uliyatining asosiy mezonlari****Umrzoqova Aida Obidjonovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti Xorijiy til va
adabiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi davrda, qo'shni davlatlarda bo'lgani kabi, Notqlik san'ati ilmini o'zimizga xos bo'lgan milliy ruhda, milliy qadriyat va an'analarimizga tayangan holda yaratish hamda mazkur ilmning respublikamizda oliy o'quv yurtlarida alohida filologik fan sifatida o'qitilishiga erishish milliy ma'naviyat jonkuyarlari oldida turgan asosiy vazifalardan sanaladi. Ushbu maqola nutq etikasi va estetikasi hamda notiq mas'uliyatining asosiy me'zonlarini o'rganadi, bu jarayonda notqlik san'atining bugungi davrdagi ahamiyati va undan foydalanishdagi samarali usullarga e'tibor qaratadi.

Maqolada nutq etika va estetikasi, notiqning shakllanishidagi muhim omillar, so'zlovchining ommani o'ziga jalb qila olishi, psixologik tadqiqotlarga asoslanib, nutqdagi ravshanlik, ishonch, ishontirish va hissiy jozibadorlik sifatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada bugungi davr notiqclarining nutqi har tomonlama etika va estetika qoidalariga tayangan holda, mas'uliyat bilan yondashib, ta'sirchanlik o'ta darajada yuqori bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: notqlik, nutq so'zlash, nutq me'yorlari, muloqot, ommabop nutq, ishontirish, ta'sirchanlik, nutq etikasi, nutq estetikasi, ishonch, yetakchilik, og'zaki nutq, yozma nutq.



Abstract: Nowadays, as in neighboring countries, the development of oratory as a field rooted in national spirit, values, and traditions, and the integration of this discipline into higher education as a distinct philological subject, is one of the core tasks before the advocates of national spirituality.

This article examines the ethics and aesthetics of speech, as well as the main criteria for an orator's responsibility. It emphasizes the modern relevance of oratory, explores effective techniques of its application, and analyzes key factors in the development of an orator, including audience engagement, clarity, credibility, persuasiveness, and emotional appeal. Based on psychological studies, the article underlines that a modern orator must approach speech with a high degree of responsibility, relying on the principles of ethics and aesthetics to ensure maximum impact.

Keywords: oratory, public speaking, speech norms, communication, popular speech, persuasion, impact, speech ethics, speech aesthetics, confidence, leadership, oral speech, written speech.

Notiqlik san'ati qadimda “Ritorika” nomi bilan yuritilgan. Notiqlik san'ati, avvalo, notiqdagi mavjud bo'lgan qobiliyat hamda iste'dodni shakllantirishga qaratilgan soha bo'lib, u notiqning qobiliyati va iste'dodini o'rganuvchi va shakllantiruvchi fandır. Notiqlik san'ati - azaliy mumtoz fan sifatida butun borlig'i bilan aqlni charxlaydigan, jamiyat hayotini boshqarishda aql-farosat vositasi bo'lib shaxsning shakllanishini uning so'zi, nutqiy mahorati orqali ko'rsatib kelgan va jamiyat taraqqiyotining yanada farovonligi sari yetaklagan. Har qanday nutq u og'zaki yoki yozma bo'ladimi ma'lum bir shaxs yoki yozuvchi tomonidan tinglovchi yoki o'quvchiga yo'naltirilgan matn ko'rinishidir. Bu nutq parchasi tinglayotgan tomonga ta'sir ko'rsatagi. Qachonki, ta'sir samarali natija bersagina, uni madaniy nutq deyish mumkin.



Har bir kasb egalari o'z kasbining mahoratli ustasi bo'lishi uchun bilim, amaliyot va tajribaga ega bo'lishi bilan birga o'z madaniy nutqini ham rivojlantirib borishi lozim. Nutq har tomonlama ibratli, ta'sirli va shu bilan birga madaniy bo'lishi uchun o'z ma'lum talablarga amal qilishi zarur sanaladi. Sitseronning “Notiqlar haqida” asarida muallifi notiqlarning odamlar diliga qo'rquv, g'azab va qayqu sola bilishi va, aksincha, bu xildagi hayajonli holatlardan kishilarni xalos qilib, ularning ruhida xotijamlik, mehr-shafqat hislarini uyqota olishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, agar notiq odamlarning turli-tuman xarakterlarini sezmasa, inson tabiatidagi umumiy xususiyatlarni bilmasa va har bir kishini goh bezovta qiladigan, goh tinchlantiradigan sabablarni tushunmasa hech qachon o'zining maqsadiga erisha olmaydi.

Mazkur parchadan ko'rinadiki, auditoriyadagi muhit haqida aniq tushunchaga ega bo'lgan holda, nutq so'zlovchi ularga nisbatan aynan gapiradigan gaplarini oldindan belgilab olishi lozim. Mavzuga mos holda, ibratli va ta'sirchan qilib so'zlash har qanday auditoriyani o'ziga jalb qila oladi. Notiq bu o'rinda maqsadiga yetishi uchun oldindan tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Rahbar uchun birgina salobatning o'zi kamlik qiladi. U ayni jamoani bo'y sundirishi va beriladigan topshiriqlariga itoatkor bo'lishini ta'minlashi uchun ham diplomat bo'lishi kerak. Bu degani, u nafaqat ish uslubi balki so'zlashuv ya'ni notiqlik san'atini ham har tomonlama puxta egallashi lozim. Zero, til (nutq) – dil kalitidir. (xalq ibratli so'zlaridan). Notiq ommabop nutqda til imkoniyalaridan samarali foydalanishni bilishi uning o'ziga xos uslubidagi mahoratdan darak beradi. Ko'p ma'noli va ma'nodosh so'zlardan foydalanganda shu so'zlami shevadagi variantlariga qiyoslash ham samarali foyda beradi. Ayniqsa, notiq mavzuni o'z so'zlari bilan (kitobiy emas) so'zlash mahoratini, egallagan bo'lishi kerak. Ommabop nutqqa xos yana bir muhim jihat nutq jarayonida hayotiy misollardan foydalanish, ma'ruza o'qilayotgan joyning, hududning o'zidan kelib chiqadigan hayotiy misollardan foydalansa ayni muddao bo'ladi. Demak. notiq uchun mas'uliyat og'ir.



Bu ayni yuqoridagi fikrimizning tasdig‘I o‘laroq, jarayonlarni samarali boshqarish uchun aynan nutqning o‘ziga xos bo‘lishi haqida fikr yuritiladi. Demakki, a‘uditoriyadagi notiq maqsadiga erishishi uchun har qanday bilimlarni umumlashtirgan holda, ulardan samarali foydalana olishi lozim. Nutq etikasi va estetikasi — bu odamlar o‘zaro muloqotda bo‘lish jarayonida og‘zaki va yozma nutq orqali axloqiy (etik) va go‘zallik (estetik) me‘yorlariga amal qilishdir.

Nutq etikasi — bu odamlar muloqot vaqtida axloqiy me‘yor va qoidalarni rioya qilgan holda, hurmat bilan, odobli, nozik va ehtiyotkor gapirish san‘atidir. Bu jarayonda suhbatdoshga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish ya‘na siz-deb murojaat qilish, biron narsa so‘rashdan oldin tavoze‘ bilan “iltimos”, biron ayb ish qilsa, yoki bexosdan ranjitib qo‘ysa “kechirasiz”, shuningdek, “marhamat”, “rahmat”, “minnatdorman” so‘zlarini qo‘shib gapirish ham nutq etikasi hisoblanadi. Shuningdek, o‘zaro suhbatda suhbatdoshning so‘zini bo‘lmaslik, so‘zlash jarayonida yolg‘on gapirmaslik, qo‘pol so‘z ishlatmaslik, boshqa odamni diqqat bilan eshitish va fikriga hurmat bilan yondashish, fikrlar to‘qnashuviga qaramay, odobli va dalilli muloqot yuritish ham nutq etikasiga kiradi.

Nutq estetikasi esa so‘zlarning chiroyli, ravon, ohangdor va mazmunli bo‘lishiga e‘tibor berishni bildiradi. U turli so‘z va iboralarni o‘rinli ishlatish, fikrni obrazli, ta‘sirli bayon qilish, gap tuzilishining silliqligi, nutqning melodikligi, tildan estetik zavq uyg‘otadigan tarzda foydalanish, talaffuz, urg‘u va grammatik qoidalarga rioya qilishdan iboratdir.

Xulosa

Biz bugun ko‘rib turganimiz butun borliq hissiyot va tuyg‘ularimiz orqali tasavvur etayotganimiz barcha-barchasini so‘z orqali ifoda etamiz. Umuman, bugungi kun yoshlarida notiqlik qobiliyatini shakllantirish va jadal sur‘atlarda kamol toptirish, bu yo‘lda



samarali usullarni izlab topish va ta'limga yo'naltirishni faylasuf olimlarimiz va o'qituvchilarimiz o'zlarining asosiy va samarali burchlari ekanligini unutmasliklari lozim.

Bizda Notiqlik mahoratini, uning sirlari, qonuniyatlarini to'liq egallamasdan, oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislarining joylardagi olib borayotgan faoliyatida nutqiy kamchilik sezilmoqda. Bu degani hali biz bu fanni puxta egallab ulguranimizcha yo'q. aslini olganda, har qanday Oliy ta'lim muassasasida nafaqat filologiya yo'nalishlarida balki, barcha sohaviy yo'nalishlarda ham aynan “Nutq madaniyati” fan sifatida hech bo'lmaganda haftasiga ikki soat o'tilsa, ayni maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, bu fanning barcha jabhalarda roli juda katta. Masalan, shifokorlarni olaylik, ular o'z bemoriga to'g'ri va ta'sirli qilib tushuncha berishlari yoki aksincha o'zining nutqiy kamchiliklari sababli bemorga zarar yetkazib qo'yishlari ham hech gap emas. Xullas, bu soha bugunning eng dolzarb muammosi ekanini anglash vaqti keldi. Ko'pgina bog'cha bolalari va maktab o'quvchilarining duduqlanib, o'z fikrini ravon ayta olmasligi holatlariga guvoh bo'lamiz.

Agar ustozlar, maktabgacha ta'lim muassasalaridayoq bolalarga har kuni 2-3 tadan she'rlar yod oldirsalar, yoki nutq o'stirish bilan bog'liq treninglarni ko'proq o'tkazib borsalar, o'sha jarayonlardan bolaning nutqiy salohiyati shakllana boshlaydi. Ayni 5-6 yoshdagi bolalarda eng kuchli xotira kuzatilgan va shu davrda berilgan bilimlar ular ongiga puxta singib qoladi. Fikrimiz so'nggida bir narsani alohida ta'kidlashni joiz deb bildik. Nutq eng avvalo insonda kichik yoshligidan shakllantirib borilmog'i lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norqul Bekmirzayev, Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. “Fan” nashriyoti, 2007.
2. Muhitdinova X. S., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006
3. Rafiev A., Mahmudov N., Yuldashev I. Kultura rechi i deloproizvodstvo na uzbekskom yazyke. – Tashkent, 2011
4. Lafasov U. O‘zbek tili. – Toshkent: ToshDSHI, 2009
5. Qahhorova H., Muhammedova S. O‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2004
6. Rafiev A., Mahmudov N., YUldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2013
7. Husanov N.A., Xujakulova R.SH., Dilmurodova N.A., O‘zbek tili – T.: LESSON PRESS, 2017. 336 b